



## INGLIZ TILINI O'QITISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

**Butunbayeva Aziza Sayfullo qizi**

Toshkent davlat Stomatologiya instituti  
assistent o'qituvchisi

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- October 2023 yil  
Ma'qullandi: 31- October 2023 yil  
Nashr qilindi: 07-November 2023 yil

### KEY WORDS

*til o'rganish muammolari, ingliz tilini o'qitish, ta'lim texnologiyasi, muammolar, yechimlar.*

### ABSTRACT

*Ingliz tilini o'qitish bir vaqtning o'zida turli xil funksiyalarni o'z ichiga oladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat o'qish, yozish, tinglash va gapirish kabi til qobiliyatlarini o'rgatib, ularga e'tibor qaratadi, balki talabalarning ingliz tiliga bo'lgan ishtiyoqi, yaxshi munosabati va motivatsiyasiga yordam beradi, osonlashtiradi va rag'batlantiradi. Shuningdek, o'qituvchi talaba nimani o'rganishini, bu o'rganish ularga qanday va nima uchun ta'sir qilishini, darslar kelajakda ular uchun qay darajada manfaatli bo'lishi mumkinligini talabaga tushuntirishi ham lozim. Shu bois, o'qituvchi talabani ham akademik, ham shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta xisssa qo'shadi.*

Fan, texnika, san'at, turizm, xalqaro aloqa va xalqaro munosabatlarda keng qo'llaniladigan tillar ilg'or tillar bo'lib, ular bugungi kunda dunyoda xorijiy til sifatida qabul qilingan. Tilni chet tili sifatida o'rgatish, bu tilning nafaqat o'z chegaralarida, balki boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan ham aloqador holda o'rgatishni anglatadi. Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish ommalashib borgan sari, o'quv materiallari va o'quv muhitlari xilma-xillashib, rivojlanib bormoqda. Biroq, bu tilni chet tili sifatida zamonaviy ta'lim usullari bilan o'rgatishda turli muammolar va qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Ingliz tili muloqoti cheklangan hududlarda ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish juda mushkul vazifadir. Bu muammo talabalar so'z boyligining kamligi, konsentratsiyaning pastligi, tartib-intizomning yo'qligi, zerikish va nutq muammosi, sinf xonalarining chet tilini o'qitishga moslashtirilmaganligi va ingliz tili o'qituvchilarining yetishmasligi bilan bog'liq. Shuningdek, o'qituvchilarning darsga yetarlicha tayyorlanmasligi, bilim darajasining pastligi, o'qitish usullarining cheklanganligi, IT sohasini yaxshi bilmaslik va malaka oshirishning yetishmasligi ham turli muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, obyektlar bilan bog'liq muammolar, jumladan, resurslar va jihozlarning yetishmasligi ham turli xil vaziyatni yuzaga keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni bartaraf etishning ikki usuli mavjud bo'lib, bular:

1. universitet va fan o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar.
2. o'quvchilarning malakasini oshirish va mavjud resurslar va imkoniyatlardan foydalangan holda talabaga motivatsion fikr-mulohazalarni taqdim etish, mos uslub yoki materiallarni izlashdir.

Ingliz tilini o'qitish bir vaqtning o'zida turli xil funksiyalarni o'z ichiga oladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat o'qish, yozish, tinglash va gapirish kabi til qobiliyatlarini

o'rgatib, ularga e'tibor qaratadi, balki talabalarning ingliz tiliga bo'lgan ishtiyoqi, yaxshi munosabati va motivatsiyasiga yordam beradi, osonlashtiradi va rag'batlantiradi. Shuningdek, o'qituvchi talaba nimani o'rganishini, bu o'rganish ularga qanday va nima uchun ta'sir qilishini, darslar kelajakda ular uchun qay darajada foydali bo'lishi mumkinligini talabaga tushuntirishi ham lozim. Shu bois, o'qituvchi talabani ham akademik, ham shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta xissa qo'shadi.

Biroq, ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish ingliz tili muloqoti cheklangan hududlarda qiyin vazifadir. O'zbekistonning geografik joylashuvi inglizabon mamlakatlardan uzoqda joylashgani, shuningdek, mavjud madaniy qadriyatlar talabalarni ingliz tilini o'rganishga yetarli darajada ta'sir ko'rsata olmaydi.

Umuman olganda, ingliz tilini o'rgatish boshqa ko'plab sohalarni o'rgatishga o'xshab ko'rinishi mumkin, biroq uning bir nechta o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Bu qiyinchiliklar turli shakllarda namoyon bo'ladi:

1. O'qituvchilarning faqat nazariy va amaliy qo'llanmalar bilan cheklanib qolishi.
2. Ingliz tili o'qituvchilarining malakasi, tilni bilish darajasi va tayyorgarligining yetishmasligi.

Sir emas, pedagogik tayyorgarligi yetarli bo'lmagan o'qituvchi o'qitish usullarini samarali o'zlashtirishga halaqit qilishi mumkin. Bunda dars mobaynida tegishli o'qitish usullari va metodlarni qo'llash juda qiyin kechadi, chunki bu jarayonda asosan o'qituvchining diqqati nafaqat to'rt til ko'nikmalarini qanday o'tkazishga, balki ingliz tilini o'rganish va amaliyotda o'quvchilarning motivatsiyasi va ishtiyoqini qanday saqlab qolishga ham qaratiladi.

Ingliz tilini o'rgatishdagi qiyinchiliklardan yana biri sinf xona o'lchamining kichkinaligidir. Katta yoshdagi o'quvchilarning sinfxonada erkin harakat qilishi cheklangani, o'quvchilar qator bo'lib bir-biriga yaqin o'tirishi, o'qituvchi va talabalarning sinfda harakatlanishi uchun joyning kamligi, sinflar orasidagi devorlarning yupqalig natijasida shovqin va turli ovozlarning eshitilib turishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, o'qitish va o'qish jarayoni qulay va yoqimli muhitda amalga oshirilishi lozim, aks holda o'qituvchi o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi, buning oqibatida ta'limdan ko'zlangan maqsadlarga erisha olmaydi.

Talabalar so'z boyligining kamligi ham dars sifatiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chet tili konteksti sifatida ingliz tilini o'rganadigan talabalar tilning grammatikasi bilan cheklanib qolishi natijasida lug'at boyligi kamayib boradi.

Talaba dars jarayonida diqqatni jamlamasa, mavzuni o'rgana olmaydi. Diqqatning jamlay olmasligiga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

1. charchoq va uyqusizlik
2. atrof-muhit
3. oilaviy muammolar

Bu omillarning barchasi bartaraf etilsa, talaba tilni o'rganishi va yaxshi natijaga erishishi mumkin.

Ingliz tilini o'rganayotgan talaba uni kundalik muloqotda qo'llamasligi talabani ingliz tilidan foydalanishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytirib yuborishi mumkin. Buning oqibatida esa talabaning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi so'nib, tilni mashq qilishdan charchaydi. Bularning barchasi esa talaffuz, morfologiya, sintaksis va imloga oid ko'plab noaniqliklarni

yuzaga keltirib chiqaradi. Talaffuz, urg'u va intonatsiya bilan bog'liq o'ziga xos muammo talabalar uchun barcha til ko'nikmalarida uchrashi oqibatida tilni mashq qilishni zaiflashtiradi.

Bu kabi muammolarni bartaraf etishda quyidagi masalalarni yechim qilib ko'rsatish mumkin:

1. Dars jarayonida samaradorlikni oshirish uchun turli xil o'qitish usullari va metodlarni qo'llash. Bunda amalga oshirish mumkin bo'lgan til o'rgatishning ko'plab usullaridan foydalanish yuqori natija beradi. Xususan, metod va o'qitish mavzusini moslashtirish orqali o'qituvchilar samarali o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishi mumkin.

2. O'qituvchilarning kasbiy mavqei va malakasini oshirish. Ingliz tilidagi seminarlar va malaka oshirish kurslariga, masalan, ko'rgazmali darslar va seminar konferensiyalariga muntazam qatnashish. Qolaversa, o'z bilimlarini oshirish va kasbiy malakalarini boyitish maqsadida professional kitob va jurnallarni o'qish.

3. Uchrashuvlar va konferensiyalar vaqtida o'qituvchilarni ingliz tilida suhbatlashishga undash.

4. Barcha talabalar bilan ingliz tilida muloqot olib borish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. John Adams || Analysis of retirement age in different countries of the world.London 2017.
2. Artemov V.A. Psixologiya obucheniya inostrannomu yazыku. – M.: “Pedagogika”, 1989.
3. Bim I. L. Некотoрые актуальные проблемы совremennого obucheniya inostrанным yazыkam.- YAISH. 2001, № 4.
4. Yoralieva U.Q. Maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xosxususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. –T., 2014, 9.

INNOVATIVE  
ACADEMY